



Kuchga kirish sanasi: 2024 yil 2 iyun

KT&G

Xulq-atvor kodeksi

KT&G

Korea Ginseng Corp.

Yungjin Pharm

Tae-a Industry

KGC Life & Gin

KGC Yebon

SangSang Stay

COSMOCOS

Bosh direktorning murojaati

Xulq-atvor kodeksiga kirish

Xulq-atvor kodeksi ta'rifi

Xulq-atvor kodeksiga bo'lgan ehtiyoj

Xulq-atvor kodeksini qo'llash

Axloqsiz xatti-harakatlar haqida xabar berish tizimi

Kodeksga rioya qilish bo'yicha rahbarlarning majburiyatları

Axloqiylik

1 Biznes axloqi

- 1.1 Manfaatlar to'qnashuvi
- 1.2 Insayderlik savdosini taqiqlash
- 1.3 Poraxo'rlik va korrupsiyani oldini olish
- 1.4 Siyosiy faoliyatda qatnashish
- 1.5 Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish
- 1.6 Faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlarning halolligi va qonuniyligi

2 Aktivlar va ma'lumotlarni himoya qilish

- 2.1 Aktivlarni himoya qilish
- 2.2 Ma'lumotlarni himoya qilish
- 2.3 Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish

3 Kompaniya ma'lumotlari va hisobotlari

- 3.1 Hisobni aniq yuritish va buxgalteriya standartlariga rioya qilish
- 3.2 Ma'lumotlarni oshkor qilish qoidalariga rioya qilish
- 3.3 Hujjalarni saqlash

Hushyorlik

4 Mahalliy va xalqaro bitimlar

- 4.1 Halol savdo
- 4.2 Ta'minot zanjiri sohasidagi siyosati
- 4.3 Xalqaro savdo qoidalariga rioya qilish
- 4.4 Noqonuniy daromadlarni legallashtirish va soliq to'lashdan bo'yin tovashni oldini olish

5 Savdo va marketing

- 5.1 Savdoga va marketingga mas'uliyatli yondashish
- 5.2 Shaffoflik
- 5.3 Normativ talablarga rioya qilish

6 Tadqiqot o'tkazishning axloqiy tamoyillari

- 6.1 Tadqiqot va ishlamalarga mas'uliyatli yondashish
- 6.2 Tadqiqotlarda vijdoniylilik
- 6.3 Hayvonlarni himoya qilish

Hamkorlik

7 Jamiyatga sodiqlik

- 7.1 Atrof-muhitni muhofaza qilish
- 7.2 Ijtimoiy hissa
- 7.3 Mijozlarga yo'naltirilganlik
- 7.4 Aksiyadorlarni hurmat qilish

8 Inson huquqlarini boshqarish sohasiga tarafdorligi

- 8.1 Inson huquqlarini himoya qilish siyosatiga rioya qilish
- 8.2 Ishchi muhitda shilqimlik va jinsiy ta'qib qilishni taqiqlash
- 8.3 Kamsitishni taqiqlash va xilma-xillikni hurmat qilish
- 8.4 Xavfsiz ishchi muhitni ta'minlash
- 8.5 Asosiy mehnat huquqlarining kafolati



Bosh direktoring murojaati

Xulq-atvor kodeksiga kirish

1 Biznes axloqi

2 Aktivlar va ma'lumotlarni himoya qilish

3 Kompaniya ma'lumotlari va hisobotlari

4 Mahalliy va xalqaro bitimlar

5 Savdo va marketing

6 Tadqiqot o'tkazishning axloqiy tamoyillari

7 Jamiyatga sodiqlik

8 Inson huquqlarini boshqarish sohasiga tarafdarligi

Bosh direktoring murojaati

Hurmatli hamkasblar,

Uyg'un global biznes muhit sharoitida biz raqobatbardosh ustunliklarimiz va xalqaro tajribamizdan yangi biznes-modellarni yaratish va samaradorlikni oshirish kabi asosiy maqsadimizdan foydalanish va shu bilan KT&G guruhini dunyoning yetakchi kompaniyalari qatoriga chiqarish uchun birlashdik.

Xulq-atvor kodeksi maqsadlarimizga erishish va strategik qarashlarni amalga oshirish yo'lida duch keladigan ko'plab qiyinchiliklar, xatarlar va noaniqliklar sharoitida to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Kundalik ishda axloqiy tamoyillarga riox qilish va Xulq-atvor kodeksida belgilangan normalarga riox qilish orqali biz iste'molchilar, aksiyadorlar, hamkorlar va umuman jamiyatning ishonchiga asoslangan KT&G guruhining barqaror rivojlanishini ta'minlay olamiz.

Keling, shahdam qadam tashlab va jahon sahnasida KT&G guruhining mavqeini mustahkamlab, Xulq-atvor kodeksi tamoyillariga birgalikda amal qilamiz.

Minnatdorchilik bilan,

2024 yil iyun
Bang Kyung-man,
KT&G Bosh direktori va prezidenti

Bang Kyung-man

Xulq-atvor kodeksiga kirish

Xulq-atvor kodeksi ta'rifi

Xulq-atvor kodeksi - bu uchta asosiy: «Axloqiy kompaniya, Hushyor kompaniya, Hamkorlik qiluvchi kompaniya» kabi qadriyatlarga asoslangan KT&G boshqaruv falsafasini o'zida mujassam etgan korporativ tamoyillarimizning poydevori.

Xulq-atvor kodeksiga bo'lgan ehtiyoj

Ushbu Kodeks axloqiy va qonuniy qarorlar qabul qilishda, mijozlar, aksiyadorlar, hamkorlar va raqobatchilar bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatishda, shuningdek, davlat va mahalliy hamjamiyatlar bilan o'zaro aloqa qilishda yo'lboschi bo'lib xizmat qilish maqsadida ishlab chiqilgan.

Xulq-atvor kodeksi tamoyillariga rioya qilib, biz axloqiy boshqarish asoslarini mustahkamlaymiz, ijtimoiy majburiyatlarimizni ongli ravishda bajaraniz, innovatsiyalar kiritamiz va o'zgarishlarga moslashamiz. Bizning maqsadimiz - KT&G-ning global kompaniya sifatida barqaror o'sishni ta'minlash, shu bilan birga o'zimizni

va tashkilotimizni huquqiy va obro'imizga putur yetkazadigan xavflardan himoya qilish.

Xulq-atvor kodeksini qo'llash

Xulq-atvor kodeksi barcha KT&G xodimlari uchun, shu jumladan mamlakatdagi va undan tashqaridagi sho'ba kompaniyalarning xodimlari uchun yagona standart hisoblanadi (bundan keyin »KT&G« yoki «Kompaniya» deb yuritiladi). KT&G kompaniyasi o'z hamkorlarini, qo'shma korxonalarini va boshqa manfaatdor tomonlarni ushbu Kodeks tamoyillariga rioya qilishga chaqiradi.

Xulq-atvor kodeksining qoidalari mahalliy qonunlarga yoki belgilangan biznes amaliyotiga zid kelsa va agar mahalliy qoidalari yanada qat'iy talablarni qo'ysa, aynan ularga ustuvor ahamiyat beriladi. Agar Xulq-atvor kodeksi mahalliy qonunchilikka qaraganda yanada yuqori standartlarni o'rntsatsa, uning qoidalari faqat milliy normalar va an'analarni buzmaydigan darajada qo'llaniladi.

Albatta, Xulq-atvor kodeksi faoliyat davomida yuzaga kelishi mumkin

bo'lgan barcha vaziyatlarni oldindan aytib bera olmaydi. Shuning uchun KT&G Xulq-atvor kodeksiga riosa etilishini ta'minlovchi qo'shimcha ichki reglamentlar, tavsiyalar va korporativ siyosatlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Kodeksda yoki tegishli hujjatlarda tavsiflanmagan axloqiy masalalar yoki qiyin vaziyatlar yuzaga kelganda, xodimlar har doim ongli ravishda va biznes axloqining yuqori standartlariga muvofiq harakat qilish uchun o'z rahbariga yoki kompaniyaning axloqiy bosqarish bo'limiga murojaat qilishlari kerak.

Xodimlar tomonidan Xulq-atvor kodeksining qoidalarini buzilishi kompaniyaning ichki qoidalariga muvofiq intizomiy choralar ko'rishga olib kelishi mumkin.

Axloqsiz xatti-harakatlar haqida xabar berish tizimi

Agar siz Xulq-atvor kodeksi buzilganligi haqida xabar topsangiz yoki axloqsiz yoki noqonuniy xatti-harakatlardan shubhalanishga asosingiz bo'lsa, darhol kompaniyangizning ichki kanali yoki axloqsiz xatti-harakatlar to'g'risida xabar berish uchun mo'ljallangan asosiy KT&G kanali orqali xabar bering (www.ktng.com → Axloqsiz xatti-harakatlar haqida xabar berish).

Biz bunday turdag'i qoidabuzarliklar haqida xabar bergan har bir kishiga oldindan minnatdorchilik bildiramiz va uning jasoratini qadrlaymiz va bergan xabari albatta e'tiborga olinishini kafolatlaymiz. KT&G obyektiv va xolis tekshiruvlarni olib boradi va jarayonning barcha bosqichlarida xabar beruvchining shaxsi to'liq maxfiy bo'lib qolishini ta'minlaydi.

KT&G axloqiy bo'lmagan xatti-harakatlar haqida xabar berganlarga nisbatan har qanday ta'qib, bosim yoki salbiy munosabatni qat'ian qabul qilmaydi. Har qanday qasos harakatlariga Xulq-atvor kodeksining bevosita buzilishi sifatida qaraladi. Biz principial pozitsiyamizni yana bir bor ta'kidlaymiz: xabar beruvchilarni qo'rqtish yoki kamsitishga qaratilgan urinishlarga toqatsizlik siyosati qo'llaniladi.

Kodeksga riosa qilish bo'yicha rahbarlarning majburiyatları

KT&G rahbarlari, shu jumladan top-menejment, korporativ madaniyatni shakllantiradi va ish muhitining ohangini belgilaydi. Ularning ta'siri ma'muriy funksiyalardan ancha yuqori, shuning uchun ulardan Xulq-atvor qoidalariga riosa qilishni talab qilishning o'zi yetarli emas - ular o'zlarini uning tamoyillarini chuqr

tushunishlari, ularga qat'iy rioya qilishlari va o'z jamoalari uchun namuna bo'lislari kerak.

Rahbarlar nafaqat Xulq-atvor kodeksiga rioya etilishini nazorat qilishlari, balki uning barcha xodimlar uchun bir xilda qo'llanilishini ta'minlashlari, har bir kishi Xulq-atvor kodeksiga oid savollarni erkin berishi mumkin bo'lgan ochiq ish muhitini shakllantirishlari kerak. Bundan tashqari, xodimlar o'zlarini ishonchli his qiladigan va ehtimolli qoidabuzarliklar yoki axloqsiz xatti-harakatlar haqida qo'rmasdan xabar berishlari mumkin bo'lgan ishonch muhitini yaratish aynan rahbarlarga bog'liq.

Axloqsiz xatti-harakatlar to'g'risida xabar olgandan so'ng, rahbarlar zudlik bilan ma'lumotni kompaniyaning axloqiy boshqarish bo'limiga topshirishlari va xabar beruvchini himoya qilish choralarini ko'rishlari, shu jumladan unga qarshi bosim yoki javob harakatlarini nazorat qilishlari shart.

Eng muhimi, rahbarlar quyidagilarni anglab yetishlari kerak: axloqsiz xatti-harakatlar haqida xabar berish - bu shunchaki huquq emas, balki har bir KT&G xodimining burchi va ular xabar beruvchiga nisbatan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan bosim bo'yicha har qanday xavotirlarni butunlay bartaraf qilishlari kerak.

1
Biznes axloqi

2
Aktivlar va
ma'lumotlarni himoya
qilish

3
Kompaniya
ma'lumotlari va
hisobotlari



Axloqiylik

1. Biznes axloqi

- 1.1 Manfaatlar to'qnashuvi
- 1.2 Insayderlik savdosini taqiqlash
- 1.3 Poraxo'rlik va korrupsiyani oldini olish
- 1.4 Siyosiy faoliyatda qatnashish
- 1.5 Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish
- 1.6 Faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlarning halolligi va qonuniyligi



2. Aktivlar va ma'lumotlarni himoya qilish

- 2.1 Aktivlarni himoya qilish
- 2.2 Ma'lumotlarni himoya qilish
- 2.3 Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish

3. Kompaniya ma'lumotlari va hisobotlari

- 3.1 Hisobni aniq yuritish va buxgalteriya standartlariga rioya qilish
- 3.2 Ma'lumotlarni oshkor qilish qoidalalariga rioya qilish
- 3.3 Hujjatlarni saqlash

Bosh direktorning murojaati	Xulq-atvor kodeksiga kirish	1 Biznes axloqi	2 Aktivlar va ma'lumotlarni himoya qilish	3 Kompaniya ma'lumotlari va hisobotlari	4 Mahalliy va xalqaro bitimlar	5 Savdo va marketing	6 Tadqiqot o'tkazishning axloqi tamoyillari	7 Jamiatga sodiqlik	8 Inson huquqlarini boshqarish sohasiga tarafdarligi
-----------------------------	-----------------------------	------------------------	---	---	--------------------------------	----------------------	---	---------------------	--

1

Biznes axloqi

1.1 Manfaatlar to'qnashuvi

KT&G kompaniyasida manfaatlar to'qnashuvi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi, chunki xodimlarning shaxsiy manfaatlari va kompaniya manfaatlarining har qanday kesishishi qabul qilinadigan qarorlarning obyektivligiga ta'sir qilishi mumkin. Har bir xodim o'z mas'uliyat darajasini anglashi va har qanday vaziyatda KT&G manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishi kerak.

1.1.1 Potensial nizolarni oshkor qilish

Agar xodim manfaatlar to'qnashuvining ehtimoliga yoki mavjud bo'lgan holatiga duch kelsa, u bu haqda darhol o'z rahbarini yoki axloqiy boshqarish bo'limini xabardor qilishi shart.

Rahbariyat va axloqiy boshqarish bo'limi xodimdan xabar olganida, ishning holatini diqqat bilan o'rjanib chiqishi va xavf

darajasini baholashi kerak. To'qnashuvning yuqori ehtimoli tasdiqlangan taqdirda, tegishli choralarни ko'rish, masalan, xodimning ish majburiyatlariga tuzatishlar kiritish yoki uning javobgarlik doirasini o'zgartirish lozim.

Shuni esda tutish muhimki, manfaatlar to'qnashuvi nafaqat shaxsiy yoki oilaviy aloqalar tufayli, balki sobiq ish beruvchilar yoki biznes hamkorlar bilan professional munosabatlar natijasida ham paydo bo'lishi mumkin.

Example**• Manfaatlar to'qnashuvining yuqori ehtimoli**

- Oila a'zosini, qarindoshini yoki tanish xodimini ishga qabul qilish.
- KT&G loyihasida ishtiroy etish uchun oila a'zosini, qarindoshini yoki tanish xodimini jalb qilish.
- KT&G loyihasi doirasida xodimning oila a'zosi, qarindoshi yoki tanishi ishlayotgan yoki xodimning o'z iqtisodiy manfaatlari bo'lgan kompaniya yoki tashkilot bilan o'zaro aloqa qilish.
- KT&G loyihasiga xodim ilgari ishlagan kompaniyani yoki uning vakillarini jalb qilish.

Example**• Manfaatlar to'qnashuvi xavfini tug'diradigan vaziyatlar**

- Raqobatchilar, hamkorlar yoki KT&G mijozlari bilan tijorat bitimlarida ishtiroy etish, agar ushbu kompaniyalarda xodimning katta moliyaviy manfaatlari bo'lsa.
- KT&G raqobatchilari, hamkorlari yoki mijozlari bo'lgan tashkilotlarga sarmoya kiritish yoki ular bilan qo'shma korxona tuzish.
- Raqobatchilar, hamkorlar, mijozlar yoki hamkasblarga pul qarzlarini berish yoki olish.
- KT&G manfaatlariga zid bo'lgan boshqa har qanday iqtisodiy faoliyat.

1.1.2 Moliyaviy manfaatlar to'qnashuvini oldini olish

KT&G xodimlari raqobatchilar, hamkorlar, mijozlar yoki hamkasblar bilan ishlashda ularning obyekтивligini shubha ostiga qo'yadigan har qanday iqtisodiy munosabatlardan chetlanishlari lozim.

**1.1.3 Xizmat vazifalari doirasidan tashqarida faoliyatni
amalga oshirish**

KT&G xodimlari kompaniya tomonidan ularga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishlari shart. Shu sababli, agar shaxsiy foyda olishga qaratilgan faoliyat ularning xizmat vazifalari doirasidan chiqadigan bo'lsa, ular bunday faoliyat bilan shug'ullanmasliklari kerak.

1.2 Insayderlik savdosini taqiqlash

KT&G kompaniyasi uning hamkorlari va mijozlarining faoliyati bilan bog'liq ichki maxfiy ma'lumotlarni qattiq himoya qiladi. KT&G xodimlariga KT&G va uning hamkorlarining aksiyalari, konvertatsiya qilinadigan obligatsiyalari yoki boshqa qimmatli qog'ozlari savdosи uchun ichki ma'lumotlardan foydalanish qat'yan man etiladi. Shuningdek, ular savdo operatsiyalarini amalga oshirish uchun bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berishga haqli emaslar.

※ "Ichki ma'lumotlar" deganda investitsiya qarorlariga potensial ta'sir ko'rsatadigan ommaviy bo'limgan ma'lumotlar tushuniladi. Bularga, xususan, moliyaviy ko'rsatkichlar, aksiyalarni qayta sotib olish dasturlari, kapitalni ko'paytirish, moliyaviy qayta qurish, yirik investitsiya loyihalari, birlashish va qo'shib yuborish bo'yicha bitimlar, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va ishga tushirish, shuningdek strategik hamkorlik shartnomalarini tuzish kiradi.

Example

• Ehtimolli insayderlik savdosiga misollar

- Ushbu biznes-jarayon bilan bog'liq bo'limgan xodimga ichki ma'lumotlarni oshkor qilish.
- Ichki ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga, shu jumladan mijozlar, hamkorlar, oila a'zolari yoki tanishlariga uzatish.
- Ma'lum bo'lgan ichki ma'lumotlardan foydalananib, qimmatli qog'ozlar bilan savdo operatsiyalarini amalga oshirish.
- Mavjud ichki ma'lumotlarga asoslanib, uchinchi shaxslarga qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirishni tavsiya etish.

1.3 Poraxo'rlik va korrupsiyani oldini olish

KT&G kompaniyasi har qanday turdag'i poraxo'rlik va korrupsiyani qat'yan taqiqlaydi va har bir mamlakatda korrupsiyaga qarshi normalarga va qonunchilikka qat'iy rioxaya qiladi.

1.3.1 Pora olish va berishni taqiqlash

KT&G xodimlariga pora yoki noqonuniy imtiyozlarni to'g'ridan-to'g'ri va vositachilar orqali davlat xizmatchilariga, davlat korxonalari va muassasalari xodimlariga, xalqaro tashkilotlar vakillariga, shuningdek kompaniyaning biznes faoliyati bilan bog'liq boshqa shaxslarga yoki guruhlarga taklif qilish, va'da qilish yoki berish taqiqlanadi. Xuddi shu tarzda, KT&G xodimlari manfaatdor tomonlardan pora yoki noqonuniy imtiyozlarni so'rash, olish yoki qabul qilishga haqli emaslar.

1.3.2 Noqonuniy so'rovlarni taqiqlash

KT&G xodimlariga faoliyatdan afzalliklar yoki foydalar olishga qaratilgan noqonuniy so'rovlarni to'g'ridan-to'g'ri va uchinchi shaxslar orqali amalga oshirish taqiqlanadi. Bundan tashqari, ularda manfaatdor tomonlardan keladigan bunday noqonuniy so'rovlarni ko'rib chiqish yoki qondirish huquqi yo'q.

1.3.3 Sovg'alar va ko'ngilochar tadbirlar

Oddiy ishbilarmonlik amaliyotidan chetga chiqadigan va biznes yuritishning obyektivligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan sovg'alar va ko'ngilochar tadbirlarni poraxo'rlik shakli deb hisoblash mumkin, shuning uchun ularga juda ehtiyyotkorlik bilan qarash lozim. Sovg'alar va ishbilarmonlik ko'ngilochar tadbirlarga oid qonunlar, an'analar va biznes-odatlar turli mamlakatlarda turlicha bo'lishi mumkin bo'lsa ham, ular har doim qonunchilikka mos kelishi va oqilona biznes axloqi doirasida qolishi kerak.

Example

• Pora sifatida baholanishi mumkin bo'lgan sovg'alar va ko'ngilochar tadbirlarga misollar

- Pora deb nafaqt pul mablag'lari, balki har qanday moddiy foyda, shu jumladan pul mablag'lari, kompaniya mahsulotlari, alkogolligichimliklar, ko'ngilochar tadbirlar uchun to'lov (masalan, golf o'yini) yoki transport xizmatlari va turar joy kabi turli xil quylayiklar bilan ta'minlanish tushunilishi mumkin.
- Davlat amaldorlariga standart tartiblarni tezlashtirish yoki xizmatlarni ko'rsatish uchun to'lovlar, shu jumladan «ekspeditorlik yig'imlari» va «yordam to'lovlari» deb nomlanuvchi ramziy sovg'alarga aksariyat mamlakatlarda poraxo'rlik shakli sifatida qaraladi.

1.4 Siyosiy faoliyatda qatnashish

KT&G xodimlarning siyosiy hayotga bo'lgan huquqini, shu jumladan siyosiy qarashlarini ifoda etishini va saylovlarda qatnashishini hurmat qiladi. Biroq, siyosiy faoliyatda ishtirok etishdan oldin quyidagi tamoyillarni hisobga olish zarur:

- Siyosiy tadbirda qatnashayotganda, xodim KT&G vakili sifatida emas, balki o'z nomidan harakat qilayotganini va u bildirgan fikrlar kompaniyaning pozitsiyasini aks ettirmasdan, shaxsiy fikri ekanligini aniq ko'rsatishi kerak.
- KT&G xodimlariga kompaniya nomidan siyosiy xayr-ehtonlarni amalga oshirish taqiqlanadi.
- Ish joyi siyosiy tadbirdarni o'tkazish uchun ishlatalmasligi kerak.
- Siyosiy faoliyk o'z vazifalarini bajarishga xalaqit bermasligi yoki ishchi muhitda manfaatlar to'qnashuviga olib kelmasligi kerak.
- Xodimlar kompaniyaning oldindan ruxsatsiz ish vaqtida siyosiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega emaslar.

1.5 Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish

KT&G xodimlarning fikrini erkin ifoda etish huquqini hurmat qiladi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy va professional sohalar o'rtaсидаги chegara yo'qolishi, shuningdek, ma'lumotlarning tez tarqalishi sharoitida, xodimlar ularning onlayn faoliyati o'zlariga ham, kompaniyaga ham zarar yetkazmasligi uchun hushyor bo'lishlari kerak:

- Ijtimoiy tortishuvlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan fikrlarni nashr etishda ular nashr etuvchining shaxsiy fikrlari ekanligi va KT&G rasmiy pozitsiyasini bildirmasligi aniq ko'rsatilishi kerak.
- Ishchi jarayonlar bilan bog'liq ma'lumotlarning tarqalishini bartaraf etuvchi choralar ko'riliishi lozim.
- Boshqa odamlar ishtirokidagi rasmlar yoki videolarni joylashtirishdan oldin ularning rozhligini olish zarur.
- Boshqalarning obro'siga putur yetkazishi yoki mualliflik huquqini buzishi mumkin bo'lgan noqonuniy kontentni joylashtirish taqiqlanadi.
- Agar ish vaqtida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ish unumdarligini pasaytirsa, undan ortiqcha foydalanmaslik lozim.

Bosh direktorning murojaati	Xulq-atvor kodeksiga kirish	1 Biznes axloqi	2 Aktivlar va ma'lumotlarni himoya qilish	3 Kompaniya ma'lumotlari va hisobotlari	4 Mahalliy va xalqaro bitimlar	5 Savdo va marketing	6 Tadqiqot o'tkazishning jamiatga sodiqlik axloqiy tamoyillari	7	8 Inson huquqlarini boshqarish sohasiga tarafdarligi
-----------------------------	-----------------------------	------------------------	---	---	--------------------------------	----------------------	--	---	--

1.6 Faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlarning halolligi va qonuniyligi

KT&G xodimlari o'zlarining kasbiy vazifalarini KT&G kompaniyasining amalda qonunchiligi va ichki reglamentlariga qat'iy rioya qilgan holda shaffof ravishda bajarishlari shart. Ular KT&G kompaniyasiga yoki uning obro'siga putur yetkazadigan qandaydir harakatlarda ishtirok etmasliklari kerak. Agar xodim noqonuniy yoki axloqsiz xatti-harakatlarga guvoh bo'lsa yoki bunday harakatlarni amalga oshirish to'g'risida ko'rsatma olsa, u bu haqda darhol o'z rahbariga yoki axloqiy boshqarish bo'limiga xabar berishi lozim.

2

Aktivlar va ma'lumotlarni himoya qilish

2.1 Aktivlarni himoya qilish

Kompaniya va uning aksiyadorlariga tegishli bo'lgan barcha KT&G aktivlari tashkilotning barqaror rivojlanishi uchun ajralmas asos hisoblanadi. Ular oqilona ishlatalishi kerak va noto'g'ri foydalanish, o'g'irlik yoki boshqa har qanday suiiste'mollikdan ishonchli himoyalangan bo'lishi kerak.

KT&G xodimlariga kompaniya aktivlaridan shaxsiy yoki uchinchi shaxslar manfaati uchun foydalanish taqiqlanadi. Barcha korporativ resurslar faqat kasbiy majburiyatlarni bajarish doirasida qo'llanilishi va ishlatalishi kerak.

Example

• Kompaniya aktivlaridan foydalanishda taqiqlangan harakatlar

- Kompaniya aktivlarini shikastlash, o'zlashtirish, o'g'irlash, ruxsatsiz ishlatalish, qarzga berish yoki sotish mumkin emas.
- Korporativ xarajatlarni rasmiylashtirish yoki qoidalarni buzgan holda korporativ kartadan foydalanish yoki xarajatlar to'g'risida yolg'on ma'lumot berish mumkin emas.
- Korporativ resurslar va uskunalardan (telefonlar, Internet, kompyuterlar, serverlar va biznes-tizimlar) shaxsiy maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

2.2 Ma'lumotlarni himoya qilish

KT&G kompaniyasi o'z korporativ ma'lumotlarini qat'iy nazorat qiladi va himoya qiladi, shuningdek, raqobatchilar yoki uchinchi shaxslarning tijorat siri yoki intellektual mulkidan noloyiq usullarda foydalanmaydi yoki olmaydi.

2.2.1 Tijorat siri va intellektual mulkni himoya qilish

KT&G xodimlari amaldagi qonunchilikka va kompaniyaning ichki qoidalariiga muvofiq barcha qimmatli korporativ ma'lumotlarni himoya qilishlari shart.

Kompaniyaning himoya qilinadigan ma'lumotlariiga quyidalar kiradi: moliyaviy ma'lumotlar, tadqiqotlar va ishlanmalar, intellektual mulk obyektlari, shu jumladan patentlar, savdo belgilari, foydali modellar, dizayn va mualliflik huquqlari, mahsulot haqida ma'lumotlar, biznes- strategiyalar va rejalar, marketing strategiyalari (masalan, narx siyosati), birlashish va qo'shib yuborish to'g'risidagi ma'lumotlar hamda boshqa tijorat ma'lumotlari. Ushbu ro'yxat to'liq emas.

2.2.2 Uchinchi shaxslarning tijorat sirlari va intellektual mulkini himoya qilish

KT&G xodimlari intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilishlari va uchinchi shaxslarning intellektual mulk obyektlaridan faqat tegishli ruxsatnomalar bo'lgan taqdirda foydalanishlari shart.

Bundan tashqari, KT&G xodimlari raqobatchilarning yoki boshqa tomonlarning tijorat sirlarini tinglash, buzish yoki pora berish kabi insofsiz usullar bilan olmasliklari kerak.

Uchinchi shaxslarning tijorat sirini shartnomada asosida olishda, taqdim etuvchi tomon ma'lumot uzatish uchun qonuniy huquqlarga ega ekanligiga ishonch hosil qilish kerak. Olingan barcha ma'lumotlar imzolangan maxfiylik to'g'risidagi shartnomalarning shartlariga qat'iy amal qilgan holda ishlatalishi kerak.

Example

Tijorat siri va intellektual mulkni himoya qilish qoidalari

- Korporativ ma'lumotlarni, shu jumladan yangi mahsulotlar haqidagi ma'lumotlarni ruxsatsiz oshkor qilish mumkin emas.
- Ofis jihozlarini ruxsatsiz olib kirish yoki olib chiqish, shuningdek dasturlarni ruxsatsiz o'rnatish mumkin emas.
- Maxfiy ma'lumotlar bilan jamoat joylarida ishlash yoki bunday materiallarni qarovsiz qoldirish mumkin emas.
- Avvalgi ish joyidan maxfiy ma'lumotlarni uzatish yoki ishlatish mumkin emas.
- Litsenziysi bo'lмаган дастурий та'mинотдан foydalanish mumkin emas.

ma'lumotlarni yig'ish yoki qayta ishlashni uchinchi shaxslarga topshirsa, ulardan ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi barcha qonunlarga rioya qilishni talab qiladi.

※ Shaxsiy ma'lumotlar - bu shaxsn ni aniqlashga imkon beradigan har qanday ma'lumotlar. Bular ism, shaxsn ni tasdiqlovchi guvohnomaning raqami, joylashuv ma'lumotlari, onlayn-identifikatorlar yoki ma'lum bir shaxs bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar, shu jumladan ularning asosida olingan anonimlashtirilgan ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

2.3 Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish

KT&G shaxsiy ma'lumotlarni turli mamlakatlardagi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikka, shuningdek KT&G kompaniyasining ichki qoidalariga muvofiq to'playdi va ishlatadi. Ma'lumotlarni faqat ularga egalik qiluvchi ma'lumotlar subyektining roziligi bilan va barcha zarur huquqiy tartiblarga rioya qilgan holda qayta ishlash mumkin. KT&G shaxsiy ma'lumotlarning ruxsatsiz oshkor qilinishini oldini olish choralarini ko'radi. Agar KT&G kompaniyasi shaxsiy

Bosh direktorning murojaati	Xulq-atvor kodeksiga kirish	1 Biznes axloqi	2 Aktivlar va ma'lumotlarni himoya qilish	3 Kompaniya ma'lumotlari va hisobotlari	4 Mahalliy va xalqaro bitimlar	5 Savdo va marketing	6 Tadqiqot o'tkazishning axloqiy tamoyillari	7 Jamiatga sodiqlik	8 Inson huquqlarini boshqarish sohasiga tarafdarligi
-----------------------------	-----------------------------	-----------------	---	---	--------------------------------	----------------------	--	---------------------	--

3

Kompaniya ma'lumotlari va hisobotlari

3.1 Hisobni aniq yuritish va buxgalteriya standartlariga riosa qilish

KT&G kompaniyasi barcha biznes-operatsiyalarni shaffof va aniq qayd etadi, shuningdek moliyaviy hisobotlarni umumiy qabul qilingan buxgalteriya tamoyillari (GAAP) bo'yicha rasmiylashtiradi. KT&G kompaniyasi ma'lumotlarni soxtalashtirish, yashirish yoki moliyaviy hujjatlarga o'zboshimchalik bilan o'zgartirish kiritishga yo'l qo'ymaydi, shuningdek firibgarlik yoki noqonuniy bitimlarda qatnashmaydi. Barcha buxgalterlik hisobotlari haqiqiy operatsiyalarni aniq aks ettirishi va belgilangan hisob standartlariga mos kelishi kerak.

3.2 Ma'lumotlarni oshkor qilish qoidalariga riosa qilish

KT&G kompaniyasi aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning qarorlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan muhim ma'lumotlarni amaldagi qonunchilik va fond birjalari qoidalariga qat'iy muvofiq ravishda ochib beradi.

KT&G kompaniyasi oshkor qilinadigan ma'lumotlarga aksiyadorlar va manfaatdor tomonlarning o'z vaqtida va teng ravishda kirishini ta'minlaydi. Barcha ma'lumotlar aniq, ishonchli va to'liq hajmda taqdim etiladi. KT&G alohida tomonlarga ma'lumotni tanlab taqdim etishga yoki uning faqat bir qismini oshkor qilishga ruxsat bermaydi.

Bosh direktorning murojaati	Xulq-atvor kodeksiga kirish	1	Biznes axloqi	2	Aktivlar va ma'lumotlarni himoya qilish	3	Kompaniya ma'lumotlari va hisobotlari	4	Mahalliy va xalqaro bitimlar	5	Savdo va marketing	6	Tadqiqot o'tkazishning axloqiy tamoyillari	7	Jamiatga sodiqlik	8	Inson huquqlarini bosqarish sohasiga tarafdorligi
-----------------------------	-----------------------------	---	---------------	---	---	---	--	---	------------------------------	---	--------------------	---	--	---	-------------------	---	---


3.3 Hujjatlarni saqlash

KT&G barcha hujjatlarning (shu jumladan elektron hujjatlarning) hisobini qonunchilik talablariga va kompaniyaning ichki qoidalariga muvofiq yuritadi, belgilangan joylarda va ma'lum muddat ichida saqlaydi. Saqlash muddati tugagandan so'ng, agar hujjatlarni saqlab qolish uchun biron bir sabab, masalan, sud jarayoni bo'lmasa, ular yo'q qilinishi kerak. Bu tijorat sirlarini oshkor qilish kabi xavflarni kamaytirishga imkon beradi.

Hushyorlik

4. Mahalliy va xalqaro bitimlar

- 4.1 Halol savdo
- 4.2 Ta'minot zanjiri sohasidagi siyosati
- 4.3 Xalqaro savdo qoidalariga rioya qilish
- 4.4 Noqonuniy daromadlarni legallashtirish va soliq to'lashdan bo'yin tovashnini oldini olish



4

Mahalliy va xalqaro bitimlar

4.1 Halol savdo

4.1.1 Vijdonli raqobat

KT&G kompaniyasi halol raqobat va erkin savdo to'g'risidagi qonunchilikka qat'iy rioxaya qiladi, biznes hamkorlariga adolatli hamkorlik sharoitlarini va boshqa kompaniyalarga vijdonli raqobatni ta'minlash orqali jahon bozorida raqobatbardosh narxlarda eng yuqori sifatli mahsulotlarni taklif qilishga intiladi.

4.1.2 Raqobatchilar bilan o'zaro aloqalar

KT&G xodimlari raqobatchilar bilan monopoliyaga qarshi qonunchilikning buzilishi yoki raqobatni cheklash deb talqin qilinishi mumkin bo'lgan muloqotdan chetlanishlari kerak. Agar biznes sabablari bo'yicha raqobatchilar bilan aloqa qilish muqarrar bo'lsa, xodimlar juda hushyor bo'lishlari va o'z harakatlari qonuniyligi ekanligi yuzasidan biroz bo'lsa-da shubha tug'ilsa, korporativ komplaens bo'limi bilan maslahatlashishlari kerak.

Raqobatchilar bilan o'zaro aloqa qilishda xodimlar quyidagilarni hisobga olishlari kerak:

- Narxlar, ishlab chiqarish hajmi yoki boshqa maxfiy ma'lumotlar kabi savdo shartlari muhokama qilinadigan rasmiy yoki norasmiy uchrashuvlarda qatnashish taqiqlanadi, agar qonun bilan aniq ruxsat berilmagan bo'lsa.
- Agar uchrashuv til biriktirishga o'xshasa, norozilingizni bildiring, uni protokolga qayd eting va darhol tadbirni tark eting. Keyin iloji boricha tezroq bu haqda komplaens bo'limiga xabar bering.
- Raqobatchilar to'g'risida ma'lumot qonuniy olingan bo'lsa ham, ushbu ma'lumotlarning manbasini va ularni olish holatlarini yozib oling, shuningdek tegishli hujjatlarni rasmiylashtiring.

4.2 Ta'minot zanjiri sohasidagi siyosat

KT&G kompaniyasi hamkorlarni tanlashda nafaqat sifat, narx, yetkazib berish muddati, ishonchilik va tajribaga qaraydi, balki axloqiy me'yorlar, xavfsizlik talablari, ekologik standartlar va inson huquqlarini himoya qilish tamoyillariga rioya qilinishiga ham alohida e'tibor beradi.

KT&G kompaniyasi ta'minot zanjirining barqarorligi uzoq muddatli rivojlanish va o'sishga yordam berishiga ishonadi. Shuning uchun KT&G o'z hamkorlaridan barcha amaldagi qonunlarga rioya qilishni talab qiladi va ularni ijtimoiy, ekologik va axloqiy jihatdan javobgar bo'lishga undaydi.

Xaridlarni boshqarish va hamkorlar bilan o'zaro aloqa qilish uchun mas'ul bo'lgan KT&G xodimlari yetkazib beruvchilar tomonidan qonun buzilishi bilan bog'liq ehtimolli xavflarni hisobga olishlari kerak. Ular hamkorlar o'z majburiyatlarini bajarishini muntazam ravishda kuzatib borishlari va nomuvofiqliklar aniqlanganda darhol chora ko'rishlari shart.

Example

• Hamkorlar monitoringi mezonlari

- Hamkorlar o'z xodimlarining sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlashlariga va majburiy mehnat taqiqiga rioya qilishlariiga ishonch hosil qilish kerak.
- Hamkorlar o'z faoliyatining ekologik jihatlarini hisobga olishini yoki atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini ko'rishini baholash zarur.
- Hamkorlar korrupsiya, kontrabanda, soliq to'lashdan bo'yin tov lash yoki noqonuniy daromadlarni legallashtirish kabi noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanmasliklarini tekshirish zarur.

4.3 Xalqaro savdo qoidalariga rioya qilish

KT&G kompaniyasi qonunlar va sanksiyalardagi o'zgarishlarni, jumladan turli mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan eksport va import cheklarini doimiy ravishda kuzatib boradi. Kompaniya barcha savdo qoidalariga qat'iy rioya qiladi. Xalqaro savdo qoidalariga rioya qilishning asosiy talablari:

- Taqiqlangan strategik materiallarni eksport qilishga va davlat sirlarini vakolatsiz shaxslarga berishga yo'l qo'yilmaydi.
- Barcha eksport / import hujjatlari (kelib chiqqan mamlakat, tovarlarning tasnifi, qiymati va boshqalar) aniq va to'g'ri to'ldirilishi kerak.
- Agar xalqaro sanksiyalarga zid bo'lsa, taqiqlangan mamlakatlar bilan savdo bitimlarini tuzish va ularning hududida biznes yuritishga yo'l qo'yilmaydi.
- Eksport qilishdan oldin maxsus ruxsatnomalar qilinishini tekshirish va agar kerak bo'lsa, uni rasmiylashtirish zarur.
- Noqonuniy eksport operatsiyalari taqiqlanadi, masalan, tovarlarni arzon narxlarda sotish yoki maqsadli bo'lmagan davlat subsidiyalardan foydalanish.

4.4 Noqonuniy daromadlarni legallashtirish va soliq to'lashdan bo'yin tovashni oldini olish

KT&G kompaniyasi turli mamlakatlardagi noqonuniy daromadlarni legallashtirish va soliq to'lashdan bo'yin tovashga qarshi qonunlarga qat'iy rioya qiladi. Kompaniya terrorizmni moliyalashtirish, soliq to'lashdan bo'yin tovash yoki noqonuniy daromadlarni legallashtirish kabi noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirishda ishtiroy etmaydi yoki qo'llab-quvvatlamaydi.

Example

Noqonuniy deb topilishi mumkin bo'lgan bitimlar

- To'lovlarini maydalash - majburiy moliyaviy nazoratdan ochish uchun operatsiyalarni oz miqdordorda o'tkazish.
- Gayriiddiy murakkab tranzaksiya sxemalari.
- Offshor hududlar yoki noqonuniy daromadlarni legallashtirish holatlari bilan ma'lum bo'lgan mintaqalar bilan bog'liq operatsiyalar.
- Odatiy biznes amaliyotiga mos kelmaydigan shubhali hisobvaraqlarga o'tkazmalar.
- Bitim bilan bog'liq bo'lmagan uchinchi shaxslar orqali amalga oshiriladigan to'lovlar.

5

Savdo va marketing

5.1 Savdo va marketingga mas'uliyatli yondashish

KT&G kompaniyasi o'z mahsulotlarini iste'molchilarga taqdim etishda halollik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi va har qanday noqonuniy savdo usullari va vijdonsiz marketing amaliyotlarini chiqarib tashlaydi.

Qonunchilik va korporativ marketing standartlariga rioya qilinishini ta'minlash uchun KT&G komplaens bo'limi orqali to'liq dastlabki tekshiruvni amalga oshiradi, xodimlarni o'qitadi va normalarga rioya qilish bo'yicha ichki dastur doirasida barcha tegishli jarayonlarni muntazam ravishda nazorat qiladi.

5.2 Shaffoflik

KT&G kompaniyasi yolg'on yoki uydirmali reklamalarda ishtiroy etmaydi. Kompaniya iste'molchilarga muhim faktlarni yashirmsandan o'z mahsulotlari haqida ishonchli va shaffof ma'lumotlarni taqdim etishga intiladi, shuningdek, barcha reklama mahsulotlari va qadoqlari amaldagi qonunchilik talablariga javob berishini kafolatlaydi.

Mijozlarning ishonchini shakllantirib, KT&G marketing materiallarda chalg'ituvchi so'zlardan foydalanmaydi va turli aloqa kanallari orqali fikr-mulohazalarni faol ravishda hisobga oladi.

5.3 Normativ talablarga riosa qilish

KT&G kompaniyasi har bir mamlakatning o'z mahsulotlarini sotish va marketing sohasidagi qonunchiligiga qat'iy amal qiladi. KT&G xodimlari savdo va marketing siyosatini ishlab chiqish bosqichida ham, o'zgartirishlar kiritishda ham amaldagi qonunchilikka muvofiq bo'lishini ta'minlashi shart. Alovida qoidalarning qonuniyligi yuzasidan shubha tug'ilgan taqdirda, malakali maslahat olish va qonuniy asosli yechimlarni izlash uchun darhol komplaens bo'limiga murojaat qilish lozim.

Example

• Taqiqlangan savdo va marketing usullari

- Voyaga yetmaganlarga yo'naltirilgan tamaki mahsulotlarining marketing faoliyati va savdosi taqiqlanadi.
- Biologik faol qo'shimchalar, dori vositalari va kosmetika mahsulotlarining xususiyatlari va samaradorligi to'g'risida noto'g'ri yoki ataylab bo'rttirilgan ma'lumotlarni tarqatish taqiqlanadi.
- Rebeytlarning noqonuniy savdo usullaridan foydalanish taqiqlanadi.

6

Tadqiqot o'tkazishning axloqiy

6.1 Tadqiqot va ishlanmalarga mas'uliyatli yondashish

KT&G kompaniyasi ilmiy-tadqiqot faoliyatini amaldagi qonunchilik normalari va davlat qoidalariga to'liq muvofiq ravishda amalga oshiradi. Belgilangan standartlarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida kompaniya tegishli sohalarda zarur bilim va tajribaga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni jalg qiladi. Ilmiy tadqiqotlar va mahsulotlarni ishlab chiqish doirasida KT&G quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- Tadqiqot ishtirokchilariga olib borilayotgan ishlarning maqsadi va vazifalari to'grisida ma'lumot berish.
- Tadqiqot ma'lumotlarini saqlash va ulardan foydalanish bo'yicha qonuniy talablarga rioya qilish.
- Yangi mahsulotlarni chiqarishga tartibga soluvchi organlarning roziligini olish uchun zarur bo'lgan aniq va ishonchli ma'lumotlarni tayyorlash.

6.2 Tadqiqotlarda vijdoniylik

KT&G kompaniyasi ilmiy-tadqiqot faoliyati va ishlanmalari davomida olingan ma'lumotlarning ishonchliligi va yuqori sifatini ta'minlash tarafdoi.

Ilmiy tadqiqotlarning natijalari manfaatdor tomonlarning qaror qabul qilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini anglagan holda, KT&G juda aniq va obyektiv ma'lumotlarni taqdim etishga intiladi.

Bosh direktorning murojaati	Xulq-atvor kodeksiga kirish	1	Biznes axloqi	2	Aktivlar va ma'lumotlarni himoya qilish	3	Kompaniya ma'lumotlari va hisobotlari	4	Mahalliy va xalqaro bitimlar	5	Savdo va marketing	6	Tadqiqot o'tkazishning axloqiy tamoyillari	7	Jamiyatga sodiqlik	8	Inson huquqlarini boshqarish sohasiga tarafdorligi
-----------------------------	-----------------------------	---	---------------	---	---	---	---------------------------------------	---	------------------------------	---	--------------------	---	--	---	--------------------	---	--

6.3 Hayvonlarni himoya qilish

KT&G kompaniyasi birinchi navbatda hayvonlarda sinovlar o'tkazishni istisno qiladigan muqobil usullarni ko'rib chiqadi. Agar bunday sinovlar zarur bo'lsa, ular hayvonlarning hayotini, ularning xavfsizligi va farovonligini himoya qilishga qaratilgan axloqiy me'yordi hisobga olgan holda, shuningdek jamiyat oldidagi javobgarlikni anglagan holda amalga oshiriladi. Bunday hollarda KT&G nafaqat qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qiladi, balki hayvonlarga insoniy munosabatni ta'minlash va ularning azob-uqubatlarini minimallashtirish uchun qo'shimcha choralar ko'radi.




Hamkorlik

7. Jamiyatga sodiqlik

- 7.1 Atrof-muhitni muhofaza qilish
- 7.2 Ijtimoiy hissa
- 7.3 Mijozlarga yo'naltilganlik
- 7.4 Aksiyadorlarni hurmat qilish

8. Inson huquqlarini boshqarish sohasiga tarafdarligi

- 8.1 Inson huquqlarini himoya qilish siyosatiga rioya qilish
- 8.2 Ishchi muhitda shilqimlik va jinsiy ta'qib qilishni taqiqlash
- 8.3 Kamsitishni taqiqlash va xilma-xillikni hurmat qilish
- 8.4 Xavfsiz ishchi muhitni ta'minlash
- 8.5 Asosiy mehnat huquqlarining kafolati



7

Jamiyatga sodiqlik

7.1 Atrof-muhitni muhofaza qilish

KT&G kompaniyasi ifloslantiruvchi chiqindilarni minimallashtirish va atrof-muhitdagi salbiy hodisalarни oldini olishga qaratilgan ekologik normalari va standartlariga qat'iy rioya qiladi. Bundan tashqari, KT&G kompaniyasi ekologik vaziyatni yaxshilashga intilib, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarida faol ishtirok etadi, iqlim o'zgarishi, issiqxona gazlari va chiqindilar tashlanishiga qarshi kurashda o'z hissasini qo'shami, shuningdek o'z mahsulotlarining ekologik xavfsizligini takomillashtiradi. Ushbu chora-tadbirlar tufayli kompaniya atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha o'zining ijtimoiy missiyasini bajarib, yanada samarali ekologik boshqaruva tizimini shakllantiradi.

KT&G kompaniyasining ekologik javobgarligi biznes-obyektlarni ishlab chiqarish va ekspluatatsiya qilishdan tortib logistika, distributsiya va mahsulotni yakuniy ishlatishgacha bo'lgan barcha faoliyat bosqichlariga tarqaladi. KT&G shuningdek, hamkorlarni

tabiatni muhofaza qilish tashabbuslarida ishtirok etishga faol jalb qiladi va barqaror rivojlanishga umumiyy hissa qo'shami.

7.2 Ijtimoiy hissa

Kompaniya faoliyati jamiyatga asoslangan va u bilan uyg'unlikda rivojlanmoqda degan tamoyilga asoslanib, KT&G kompaniyasi ijtimoiy sohadagi uzoq muddatli ijobiy o'zgarishlarga qaratilgan tashabbuslarni faol qo'llab-quvvatlaydi.

Kompaniya jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglab va uning rivojlanishiga muhim hissa qo'shib, turli mintaqalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan mahalliy ijtimoiy mas'uliyatga ega dasturlarni amalga oshiradi va barqaror ijtimoiy hissa tizimini yaratadi, ta'limni rivojlantirish, stipendiyalar berish, ijtimoiy himoya, madaniyat va san'atni qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etadi.

Bosh direktorning murojaati	Xulq-atvor kodeksiiga kirish	1 Biznes axloqi	2 Aktivlar va ma'lumotlarni himoya qilish	3 Kompaniya ma'lumotlari va hisobotlari	4 Mahalliy va xalqaro bitimlar	5 Savdo va marketing	6 Tadqiqot o'tkazishning axloqiy tamoyillari	7 Jamiyatga sodiqlik	8 Inson huquqlarini boshqarish sohasiga tarafdarligi
-----------------------------	------------------------------	-----------------	---	---	--------------------------------	----------------------	--	-----------------------------	--

Ushbu tamoyillarga amal qilgan holda, kompaniya nafaqat o'zining ijtimoiy majburiyatlarini bajaradi, balki barqaror ijtimoiy qiymatni yaratish tashabbuskor sifatida ham harakat qiladi.

7.3 Mijozlarga yo'naltirilgan

KT&G xodimlari mijozlarning qiziqishlari va umidlari asosida haqiqatan ham foydali va ehtiyojlarini qondiradigan qadriyatlarni yaratishga intilishadi. Kompaniya doimiy ravishda mijozlar oldida o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajaradi.

Buning uchun KT&G iste'molchilarining fikrlarini diqqat bilan tinglaydi, qaror qabul qilishda va kundalik faoliyat jarayonida ularning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi. Kompaniya ishonchli mahsulot va xizmatlarni taklif qilish orqali mijozlar ehtiyojini qondirishning yuqori darajasini ta'minlaydi.

7.4 Aksiyadorlarni hurmat qilish

KT&G o'z aksiyadorlarining qonuniy huquqlari va talablarini tanoladi va hurmat qiladi. Bundan tashqari, KT&G boshqaruvdagи doimiy innovatsiyalar, korporativ qiymatni oshirishga qaratilgan o'sish strategiyalari, shuningdek, qarorlar qabul qilishda shaffoflik va barqaror foydani ta'minlaydigan samarali boshqaruv orqali aksiyadorlik qiymatini maksimal darajada oshirishga intiladi.галт, ўр ашигтай удиридлагын үйл ажиллагаагаар дамжуулан хууль ёсны ашиг олох байдлыг хэрэгжүүлж хувьцаа эзэмшигчдийн үнэ цэнийг өсгөхийг зорьж байна.

8

Inson huquqlarini boshqarish sohasiga tarafdarligi

8.1 Inson huquqlarini himoya qilish siyosatiga rioya qilish

Global kompaniya sifatida KT&G inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, BMTning tadbirkorlik faoliyati va inson huquqlari bo'yicha Boshqaruv tamoyillari va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ning 138 va 182-sonli Konvensiyalarida belgilangan mehnat huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro miqyosda tan olingen standartlarga amal qiladi. Ushbu tamoyillarga rioya qilgan holda, KT&G inson huquqlari sohasida boshqaruv tizimini doimiy ravishda takomillashtirib, kompaniya ichida ham, tashqi manfaatdor tomonlar bilan ham shaffof hamkorlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, kompaniya buzilgan huquqlarni himoya qilish va tiklashga qaratilgan mexanizmlarni amalga oshiradi va qo'llab-quvvatlaydi.

KT&G kompaniyaning hech bir xodimi majburiy mehnatga, shu jumladan har qanday zo'ravonlik, tahdid, erkinlikni cheklash yoki

boshqa majburlash usullariga duchor bo'lmasligini ta'minlaydi. Bundan tashqari, kompaniya bolalar mehnatidan foydalanish taqiqiga qat'iy rioya qiladi. KT&G shuningdek, biznes hamkorlari o'rtasida majburiy va bolalar mehnati holatlarini aniqlash va oldini olish bo'yicha faol choralarni ko'radi. Bundan tashqari, KT&G xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) konvensiyalariga va eng kam ish haqi, ish vaqt va dam olish vaqtini tartibga soluvchi milliy qonunchilikka qat'iy rioya qiladi.

8.2 Ishchi muhitda shilqimlik va jinsiy ta'qib qilishni taqiqlash

KT&G xodimlarni og'zaki, vizual yoki jismoniy ta'sirning har qanday shakllaridan, shu jumladan og'zaki haqorat, zo'ravonlik va jinsiy ta'qibdan himoya qiladi. Xodimlarning qadr-qimmatiga putur yetkazadigan har qanday tahidilar, kamsituvchi so'zlar va xatti-

harakatlар taqiqланади.

KT&G komпанияси xодимлар shilqimlik va jinsiy ta'qib holatlari haqida qo'rmasdan xabar berishlari mumkin bo'lgan xavfsiz va shaffof ish muhitini yaratishga intiladi. Shikoyat qilgan yoki bunday hodisalarni tekshirishda ishtirok etgan shaxslarga nisbatan har qanday shakldagi bosim, kamsitish yoki salbiy oqibatlar qat'ian man etiladi.

Example

- Ish joyida shilqimlik va jinsiy ta'qib sifatida qaraladigan harakatlар**
 - Xodimga nisbatan ish majburiyatlaridan chetga chiqadigan jismoniy yoki psixologik noqulaylik tug'dirish yoki noqulay ish muhitini yaratish uchun xizmat mavqeidan yoki kasbiy munosabatlardan foydalanish.
 - Shaxsning roziligidan unga nisbatan istalmagan jismoniy aloqalarni amalga oshirish yoki tanasining ayrim qismlariga teginish, bu jabrlanuvchida xo'rlik yoki jirkanish tuyg'usini keltirib chiqarishi mumkin, shuningdek, jinsiy yoki boshqa noqonuniy talablarni rad etishiga javoban mehnat faoliyatida to'siqlar yaratish.
 - Boshqa tomonning roziligidan qat'i nazar, boshqalarga ko'rindigan jinsiy harakatlarni amalga oshirish, agar ular noqulaylik yoki xo'rlik tuyg'usini keltirib chiqarishi mumkin bo'lsa.

8.3 Kamsitishni taqiqlash va xilma-xillikni hurmat qilish

KT&G turli mamlakatlarda qo'llaniladigan kamsitmaslik to'g'risidagi qonunchilikka qat'iy rioya qiladi va xodimlar, hamkorlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'ttasida xilma-xillikning ahamiyatini tan oladi, shuningdek turli qarashlar, e'tiqodlar va hayotiy pozitsiyalarini hurmat qilishga asoslangan inklyuziv ish muhitini shakllantirishga intiladi.

KT&G ishga joylashishda, martaba ko'tarilishida, vazifalarni taqsimlashda, mehnatga haq to'lashda, kasbga o'rgatishda va biznes faoliyatining boshqa jihatlarida shaxsning jinsi, irqi, teri rangi, milliy kelib chiqishi, diniy e'tiqodi, nogironligi, yoshi, homiladorligi, harbiy holati, ijtimoiy mavqeい yoki siyosiy qarashlari bo'yicha kamsitishning hech qanday shakliga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydi.

Example***Kamsitishning taqilangan shakllari***

- Bo'sh ish o'rinnari to'g'risidagi e'lonlarga kasbiy majburiyatlar yoki lavozimga qo'yildigan talablarga bog'liq bo'lмагan shaxsiy xususiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish, shuningdek ariza berish yoki suhbatdan o'tish paytida bunday ma'lumotlarni so'rash.
- Shaxsiy xususiyatlari, shu jumladan kasaba uyushma a'zoligi, homiladorligi, bolani parvarishlash ta'tilida ekanligi, diniy e'tiqodlari yoki jinsiy orientatsiyasi tufayli boshqa lavozimga o'tkazish yoki lavozimini pasaytirish.
- Xodimning kasbiy malakasi va ish natijalari bilan bog'liq bo'lмагan shaxsiy xususiyatlari asosida ish haqi yoki berilgan imtiyozlar miqdorida asossiz farqlarni belgilash.

ravishda aniqlash va takomillashtirish orqali xavfsiz ish muhitini shakllantirish uchun faol choralar ko'radi.

Example***Xavfsiz ishchi muhitni ta'minlash qoidalari***

- Sanoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilik talablariga, shuningdek ichki korporativ normalar va qoidalarga qat'iy rioya qilish.
- Xavfli materiallarni bartaraf etish va himoya vositalarini o'rnatish orqali ishlab chiqarish xavflarini minimallashtirish.
- Xodimlarni shaxsiy himoya vositalari bilan kerakli miqdorda ta'minlash, shuningdek ularning butligi va samaradorligini muntazam ravishda tekshirish.

8.4 Xavfsiz ishchi muhitni ta'minlash

KT&G xodimlari sanoat xavfsizligi talablariga qat'iy rioya qilishlari shart. Ushbu normalarga rioya qilish ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar xavfini minimallashtirishga imkon beradi va xodimlar, ularning hamkasblari, hamkorlari va mijozlarini himoya qiladi. Bundan tashqari, kompaniya sog'liq va xavfsizlikka tahdid solishi mumkin bo'lgan samarasiz jarayonlar va amaliyotlarni muntazam

8.5 Asosiy mehnat huquqlarining kafolati

KT&G asosiy mehnat huquqlariga rioya qilinishini, shu jumladan kasaba uyushmalari, jamoaviy muzokaralar va jamoaviy harakatlarga birlashish huquqlarini ta'minlaydi. Ushbu huquqlarning amalga oshirilishi KT&G tomonidan mehnat sharoitlarini saqlash va yaxshilashga, shuningdek ishchilarning iqtisodiy va ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga yordam beradi.

Bosh direktorning murojaati	Xulq-atvor kodeksiga kirish	1	Biznes axloqi	2	Aktivlar va ma'lumotlarni himoya qilish	3	Kompaniya ma'lumotlari va hisobotlari	4	Mahalliy va xalqaro bitimlar	5	Savdo va marketing	6	Tadqiqot o'tkazishning axloqiy tamoyillari	7	Jamiyatga sodiqlik	8	Inson huquqlarini boshqarish sohasiga tarafdorligi
-----------------------------	-----------------------------	---	---------------	---	---	---	---------------------------------------	---	------------------------------	---	--------------------	---	--	---	--------------------	---	---

Example

• Asosiy mehnat huquqlarini ta'minlash qoidalari

- Milliy mehnat qonunchiligiga muvofiq birlashmalar erkinligi va jamoaviy muzokaralarga bo'lgan huquqning kafolati.
- Kasaba uyushmasiga a'zoligi yoki kasaba uyushma faoliyatida ishtirok etishi asosida xodimlarga nisbatan har qanday kamtsituvchi munosabatni taqiqlash.
- Kasaba uyushmalari yoki ularning a'zolarining mehnat huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonuniy va huquqiy faoliyatiga aralashishni taqiqlash.